

TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARING AHAMIYATI

Alibekov Davron Abdurakibovich-O'zMU JF

Oila psixologiyasi kafedrasи mudiri, falsafa
doktori (PhD)

Abduraqibova Dinora Davron qizi-Jizzax
davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lrim tizimida innovatsion yondashuv innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, innovatsion infrastruktura, va modernizatsiyasiga asoslangan strategik ahamiyatining nazariy jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion, modernizatsiya, ta'lrim, faoliyat, salohiyat, infrastruktura, yondashuv, strategiya, tendensiya, globallashuv, texnologiya, jamiyat, tafakkur.

Ta'lrim tizimini innovatsion rivojlantirish jarayoni o'zida ijtimoiy rivojlanishning sifat bosqichiga olib chiqadigan, o'ziga xos ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlarni vujudga keltiradigan murakkab, bir butun va dinamik faoliyatini qamrab oladi. Ta'limgagi innovatsion o'zgarishlar – bu tizimli yangicha texnologiyalar, axborotlashtirish va yangiliklarni yaratish va joriy etish, tizimni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan jarayonlar orqali inson salohiyatini yuksaltirish va pirovardida jamiyat sohalarida muhim sifatiy o'zgarishlar yasash demakdir.

Shuningdek, ta'lrim sohasida innovatsion o'zgarishlar uning barcha tizimlari faoliyatida ish jarayonini yangicha asoslar bilan o'zgartirish orqali keng qamrovli modernizatsiya qilishdir. Bu jarayonda ta'lrim sohasi tizimlari faoliyatining samaradorligi oshadi, pirovardida ta'lrim sohasi yangi rivojlanishg bosqichiga o'tib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu tendensiya bugungi globallashuv bilan bog'liq raqobatga asoslangan sharoitda davrida jamiyat hayotining barcha

tizimlari bilan aloqador holda kunda ta’limning barcha sohalarini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishga katta ehtiyoj hosil qilmoqda.

Jamiyatimizda ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuning bilan birgalikda ilm-fan sohasini ham innovatsion faoliyatini ta’minlash borasida keng qamrovli faoliyat kuzatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” [1] ko‘zda tutilgan.

Ilm-fanda yaratilgan yangiliklar, texnika va texnologiyalarning zamonaviy ko‘rinishlari jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalariga jadal taqdim etilmoqda va bu orqali jamiyat va inson farovonligini ta’milanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar zamonaviy axborot almashinushi, yangi kommunikatsion texnologiyalarning salmoqli imkoniyatlari bilan bog‘liq holda global miqyosda tarqalmoqda va yangicha mohiyat kasb etmoqda. Bu esa, insonning texnika va texnologiyalarni yaratish bilan bog‘liq imkoniyatlari ko‘laming jadal kengayib borayotganligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi ijtimoiy muxit shart-sharoitlariga bog‘liq ravishda, jamiyat va inson ehtiyojlarining kundan kunga kengayib borayotgan sharoitida transformatsiyalashgan jamiyat va unda vujudga kelayotgan muhim qonuniyatlar insoniyat hayot tarziga goh salbiy, goh ijobiy holatda ta’sir o‘tkazmoqda. Bu jarayonda ta’lim tizimi oldida shunday muammolarni yechishga qaratilgan vazifalar paydo bo‘lmoqdaki, bu esa, ta’lim tizimini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish bilan aloqador dolzarb jarayonlarni ijtimoiy hayotda ro‘yogha chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarning global axborot tizimi bilan bemalol tillasha olish, axborot madaniyatini shakllantirish, zamonaviy tamaddun maksadlari va muddaolariga

javob bera olishga oid innovatsion qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifaga aylandi.

Globallashuv jarayonlarining bugungi taxlili shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatlarni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish sharoitida jiddiy texnik-texnologik raqobat muhiti yuzaga kelmokda. Fuqarolar, ayniksa yoshlarning zamonaviy innovatsion an’analarni egallashi va ularga javob bera olish ko‘nikmalarini shakllantirishda ma’lum muammolar vujudga kelmoqda. Shu boisdan ham axborotlashgan jamiyatda yoshlар innovatsion dunyokarashini tezkor va mukammal asosda shakllantirish va rivojlantirish masalalarini ilmiy asosda tahlil etib, muhim xulosalar, zaruriy metodik tavsiyalar ishlab chikish dolzarb mohiyat kasb etmoqda.

Har tomonlama bilimlarni egallagan, innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan yoshlар mamlakatimiz ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy va madaniy hayotining asosiy strategik zahiralari bo‘lib hisoblanadi, ularning ishtirokisiz jamiyatni rivojlantirishning imkoniyati yo‘q. Jamiyatni modernizatsiya qilish yo‘lida birmuncha murakkab, keng qamrovli vazifalarni hal etishda katta yoshdagi kadrlar bilan bir qatorda yoshlар ham muhim ijtimoiy kuch sifatida ishtirok etadi, uning salmog‘ini ta’minlashga ko‘maklashadi. Jamiyatimizda tarixan shakllangan ilm va ma’rifatga e’tibor, ijtimoiy hayotda ta’lim va tarbiyaning farovon jamiyat qurishning asosiy manbai bo‘lib kelganligi yoshlarning bilim olish bilan bog‘liq muhim qadriyatlarini shakllanishiga muhim zamin bo‘lib hisoblanadi.

“Innovatsiya” jamiyat hayotining hamma tizimlarida, insonga taalluqli bo‘lgan faoliyatining barcha sohalarida uchraydi. Ilmiy izlanishlarning natijasi, darajasi, ko‘لامи va va ishlab chiqarishdagi amaliyotidan kelib chiqib, innovatsiyalar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga o‘zining juda katta hissasini qo‘sadi. Innovatsiyalar esa, yangi bilimlar, innovatsiyalarning yaratilishi, uni hayotga joriy etilishi va samara darajasini ifoda qilish ketma-ketligida namoyon bo‘ladi. Bu esa, yangicha sharoitda inson hayotiy faoliyati uchun zamonaviy ko‘lamdagi shart-sharoitlarni yaratilishiga xizmat qiladi.

Olimlarning ta'kidlashicha, "Innovatsiya deb, ko‘p qirrali jamiyat hayotining u yoki bu sohasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan ilg‘or g‘oyalari, ular asosida yaratilgan ilmiy-amaliy ishlanmalarini ilm-fanlarning so‘ngi yutug‘i, texnika va texnologiyalarning yangi ixtirosi sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy hayotida qo‘llanilishiga aytildi"[2]. Demak, innovatsiya inson tafakkuri va salohiyati orqali jamiyatning ma’lum sohasiga kiritilgan yangilik, kashfiyat va ixtirodir.

Innovatsiyalar o‘zining ko‘lami, darajasi va hayotiy ifodasi bo‘yicha:

- doimiy davom etadigan jarayon;
- yangi amaliyot uchun texnologik kashfiyat;
- inson faoliyatining to‘laqonli mahsuli;
- jamiyat va inson faravonligi uchun qaraligan faoliyat;
- ishlab chiqarish yoki ijtimoiy faoliyatni yangi sifat darajasi;
- ilmiy jarayon va amaliy faoliyatning uyg‘unligini ifodalaydigan fenomen.

X.Abdusattorovaning fikricha, "Innovatsiyalar ishlab chiqarish sohasida, iqtisodiy, huquq va ijtimoiy munosabatlar, fan, madaniyat, ta’lim va boshqa sohalarga mansub bo‘lishi mumkin. Innovatsion strategiyalar ishlab chiqish uchun barcha boshqaruv pog‘onalarida yangiliklar kiritish tarkibida ijtimoiy xizmatlarni ham hisobga oladigan talqin to‘g‘ririq bo‘ladi"[3]. Mazkur fikrda innovatsiyaga taalluqli bo‘lgan birmuncha o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rsatilgan. Shuning bilan birgalikda innovatsiyalarning ijtimoiy hayot va munosabatlar bilan bog‘liq tomonlarini ham yoritgan. Shuni ta’kidlash lozimki, olim ushbu o‘rinda innovatsiyalarning yaratilishida insonning o‘rni va roli borasidagi masalalarga to‘xtalmagan.

R.Gimush, F.Matmurodovlarning fikricha, "innovatsiya – boshqaruv ob’ektini o‘zlashtirish hamda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa turdagи samara olish maqsadida yangiliklar joriy qilishning yakuniy natijasi"[4]. Shuningdek, olimlar innovatsiyalarning ijtimoiy soha bilan bog‘lik jihatlarini kishilar mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, tibbiyot, ta’lim-tarbiya, madaniyat va ma’rifat muammolarini yechish bilan bog‘liq jarayonlarga

qaratilganligini ham ta'kidlaganlar. Demak, olimlar innovatsiyalarning ijtimoiy hayot bilan bog'liq xususiyatlarini, ijtimoiy sohani turli tizimlarini rivojlanishiga ta'sir etadigan, o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan muhim jarayon ekanligini e'tirof etganlar.

Rossiyalik olim N.Emirov innovatsiyaga oid tushunchalarni innovations jarayonlar va faoliyatga xizmat qiladigan innovations salohiyat, innovations soha, innovations infratulma kabi kategoriyalarni qo'llash bilan to'ldirib yoritishga harakat qiladi, masalan:

“innovatsion salohiyat” - (davlat, mintaqqa, sohalar, tashkilotlar) — innovations faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnik va boshqa resurslarni o'z ichiga olgan turli xildagi resurslarning yig'indisidir;

“innovatsion soha” - innovationsiyalarni yaratish va tarqatishni o'ziga maqsad qilib olgan innovations mahsulotni ishlab chiqaruvchilar va innovationsiyalar natijalarini iste'mol qiluvchilar faoliyati sohalaridir;

“innovatsion infratuzilma” – innovations faoliyatni amalga oshirishni ta'minlovchi tashkilotlar (innovations-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o'quv-ishlab chiqarish markazlari va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar) [5].

Ta'lim tizimini ham innovations rivojlantirish uning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, uning zamonaviy rivojlanishiga o'zgacha mazmun bag'ishlaydi. Innovationsiyalar ta'limni o'zini-o'zi rivojlantirish, yuqori darajada va sifatli bilim olish orqali samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonining tabiiy asosda, ya'ni har qanday byurokratiya, buyruqbozlik va korrupsiya kabi ichki va tashqi salbiy ta'sirlardan xoli asosda mavjud bo'lish omillari uning samarali, zamonaviy va innovations asosda rivojlanishga bo'lgan shart-sharoitlarini ta'minlab beradi. Ta'lim jarayonini innovations asosda rivojlanishi uning jamiyatga yanada ijtimoiylashuvi, madaniy-ma'rifiy xarakter kasb etishi, yangiliklar va islohotlarni amalga oshirishda ilg'or soha sifatida

mavjud bo‘lishi kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etishiga sharoit yaratadi.

Innovatsiya natijasida ta’limning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy islohotlarga mos holda o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi soha sifatida maqomi va darajasi oshadi. Innovatsiyalar ta’lim tizimini har bir bosqichi va bo‘g‘iniga kirib borib, uning jamiyat rivoji uchun muhim yangiliklar yaratish borasidagi mazmunini mustahkamlaydi. Innovatsion jarayonlar tashkil etilib borgan sari ta’lim sohasida ishtirok etuvchi barcha sub’ektlarning yangiliklar yaratishga qaratilgan faolligi va moyilligi oshib boradi. Shunday qilib, “Ta’limda innovatsiyalar ta’lim jarayoniga yangiliklar kiritish, ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun uning texnologiyalari va mazmuniga o‘zgartirish kiritish tushuniladi”[6].

Demak, ta’lim tizimida innovatsion faoliyat deganda unda yangiliklar borasida g‘oyalarni vujudga kelishi, ularni yaratish borasidagi jarayonlarni borishi, ularni o‘zlashtirish, foydalanish va tarqatishga qaratilgan kompleks faoliyatdir. Ta’lim tizimida yaratiladigan innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini uning turlari, maqsad va vazifalari, metodologik ta’minoti, ilmiyligi, faoliyat xarakteri, faoliyat turlari, joriy etilish ko‘lami, natijadorligi, yangilik ko‘lami, ijobiy oqibatlari, miqdor ko‘rsatkichlari, sifat va samaradorligi kabi omillariga ko‘ra baholash mumkin.

Ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion omilning ustivorligini tashkil etilishini ijtimoiy tavakkalchilik (risk) jarayoniga ham o‘xshab ketadi, chunki, innovatsion ta’lim oddiy ta’limning muqobili hisoblanib, jamiyatda sobiq ta’limiy qadriyatlarni ko‘pgina ko‘rinishlarini siqib chiqaradi. Natijada ta’lim tizimida birqancha davr sinov muddati bo‘lib, eskilik va yangilik o‘rtasida qaramaqarshiliklar kuzatilishi mumkin. Bu davrda ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarning zamonaviy qarashlari, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishi va yangiliklarni qabul qilish darajasining yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, ta’lim tizimi xodimlarining ham innovatsion dunyoqarashining mukammalligi ta’limni modernzatsiya qilishning muhim elementi hisoblanadi. Bu

jarayonni samarali ta'minlash uchun ta'lim tizimida tuzilmaviy, tizimli va funksional darajadagi o'zgarishlarni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda ta'lim ishtirokchilarining kasbiy mahorati, zamonaviy axborotlar va ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi, psixologik va pedagogik tayyorgarligi va qayta tayyorgarligi kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Mazkur o'zgarishlar ta'limni tubdan isloh qilish va qaytadan tashkil etish bilan bog'liq vazifalar bilan bog'lanib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda*
2. Yaxshilikov J., Muhammadiev N. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. -Toshkent, "Cho'lpon", 2018. –B. 549.
3. Abdusattorova X. Innovatsion strategiya. -Toshkent: Tafakkur bostoni, 2012. – B. 15.
4. Gimush R., Matmurodov F. Innovatsion menejment. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –B. 14.
5. Emirov N. Faktory innovatsionnoy deyatelnosti v sotsialnoy sfere. www.m-economy.ru/art.php.
6. Rapasevich Ye. Bolshaya sovremennoya ensiklopediya. –Minsk, Sovremennoe slovo, 2005. -S. 198.
7. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
8. Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYA SISTEMY OBRAZOVANIYA //Jurnal muzlyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.
9. Farsakhanova, Dilafuz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).

10. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lif-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzыki i iskusstva* 2.1 (2021).
11. Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.
12. Otamuratov R.U. O'SMIRLARDAGI KASBIY O'ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiy-o-zligini-anglashidagi-xavotirlanishning-psixologik-xususiyatlari> (дата обращения: 30.01.2023).
13. Otamuratov R.U., Ochilova M. EMOTSIONAL INTELEKT TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/emotsional-intelekt-tushunchasining-psixologik-o-ziga-xosligi> (дата обращения: 30.01.2023).
14. Yuldasheva S. I.A. KARIMOV ASARLARIDA YUksAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
15. Yuldasheva Sojida Zoirovna, Nizomov Bekhruz Umarovich, Kholova Mohina Khayot qizi, & Eshtemirov Avazbek Nodir ugli. (2022). PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(12), 153–161. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/365>
16. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
17. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 513-515.

18. П.М.Рахматуллаева, М.А.Махкамова ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-talim-sifatini-oshirishda-motivatsiyaning-rni-yohud-ulkan-ma-sadlar-sari-dastlabki-adam> (дата обращения: 26.01.2023).
19. Sharofitdinov, A. (2022). Destruktiv xulq-atvor paydo bo ‘lishi va shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(3).
20. Sharofitdinov, A. (2022). SHAXS RIVOJLANISHIDA HISSIY INTELLEKTNING O’ZIGA XOS O’RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5).
21. Sharofitdinov, A. (2022). SPORT BILAN SHUG’ULLANUVCHI BOLALARNING HISSIY-IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5).
22. Rashidova G. “COMPENTLIK” AND “COMPACTNESS” OF TINCALARING OF TALHS AND JEWELRY //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – Т. 2021. – №. 4. – С. 99-112.
23. Rashidova G. G. Socio Cultural Approach as a Modern Direction of Teacher Training //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 8. – С. 169-172.
24. Rahmatullayeva M. O ‘QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
25. Rahmatullayeva M. XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
26. Davlataliyevna, S. N. (2022). OILADAGI SALBIY MULOQOTNING FARZAND PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 475-478.

27. Davlataliyevna, S. N. (2022). PSYCHOLOGY AND ITS PRINCIPLES. *Scientific Impulse*, 1(5), 823-826.
28. Davlataliyevna, S. N. (2022). UMUMIY PSIXOLOGOYA VA TURLI XIL PSIXOLOGIK AMALIYOTLAR. *Scientific Impulse*, 1(5), 820-822.
29. Abduvakilovna, Karakulova Umida, and Ravshanova Xurshida Xusanovna. "O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA'SIRI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 91-94.
30. Abduvakilovna, Karakulova Umida, and Xolboyev Jasurbek Baxriddin o'g'li. "O'SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 87-90.
31. Abduvakilovna, Karakulova Umida. "OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 95-98.
32. Farsakhanova, D., & Alibekov, D. (2020). Technology to improve the quality of education based on educational values. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
33. Alibekov, L., & Alibekov, D. (2008). Causes and Socio-Economic Consequences of Desertification in Central Asia: Causes and Consequences of Desertification. In *The socio-economic causes and consequences of desertification in Central Asia* (pp. 33-41). Springer Netherlands.
34. Alibekov, D. (2020). SOCIO-PHILOSOPHICAL BASIS OF EDUCATIONAL SYSTEM DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (10), 24-26.
35. Alibekov, D. (2021). СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
36. Alibekov, D. (2021). SHARQ MUTAFAKIRLARINING TA'LIM-TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(1).
37. Абдурасулов, Ф. П., Аракулов, Г. Т., Эркинова, М. Т. К., & Мирзахматов, А. Х. У. (2022). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА

- В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special Issue 2), 277-282.
38. To'lqinovich, A. G. (2022). IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGI VA MA'NAVIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 561-566
39. Yuldashev, S. (2023). LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SINF RAHBARINING O'RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7716>
40. Yuldashev, S. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/6548>
41. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721>
42. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). INTERNETNING SHAXSGA TA'SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7723>
43. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7724>
44. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721>

45. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING HISSIY OMILLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7727>
46. Arakulov, G. (2023). ВНИМАНИЕ – ВАЖНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7681>
47. Arakulov, G. (2023). АГРЕССИЯ - ЎСМИРЛАРДА ТАЖОВУЗКОРЛИК ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7714>
48. Djumanov, S. (2023). TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSIGA YONDASHUVLAR VA TUSHUNCHALAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7719>